



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)

Ro'yxatdan
o'tgan
79,9 ming.

2019-yilning 1-iyun holatiga 79,9 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,2 foizga o'sgan.

Faoliyat
ko'rsatayotgan
77,3 ming.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 13,0 mingta (16,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 77,3 mingtani tashkil etgan.

Yangi tashkil
etilganlar
9,8 ming.


2019-yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrida 9,8 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 mingtaga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-iyun holatiga)



2019-yilning 1-iyun holatiga 79,9 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,2 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,7 % - savdo, 18,4 % - sanoat, 7,5 % - qurilish, 7,2 % - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % - tashish va saqlash, 3,9 % - axborot va aloqa, 1,8 % - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,0 % - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 32,4 % - boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (18991 ta) savdo, (14741 ta) sanoat, (5982 ta) qurilish, (769 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (5777 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (3264 ta) tashish va saqlash, (3051 ta) axborot va aloqa, (1469 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (25945 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 77,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 13,0 mingta (16,8 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlari

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni tumanlar kesimida, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (10343 ta), Chilonzor (9833 ta), Mirzo Ulug'bek (8716 ta), Olmazor (8245 ta), Shayxontohur (7511 ta), Yakkasaroy (6993 ta), Uchtepa (7041 ta), va Mirobod tumanlar (6583 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yashnobod (5716 ta), Sirg'ali (4555 ta) hamda Bektemir (1792 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar









(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-may oylarida 9806 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 4362 taga ko'pdir.



2019-yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (4548 ta), sanoat (1517 ta), qurilish (804 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (546 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (296 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (122 ta), hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (91 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



4548

Tashish va saqlash



296

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



546

Qurilish



804

Sanoat



1517

Axborot va aloqa



307

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



122

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



91


Boshqa turlari



1575


Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Uchtepa (1474 ta), Olmazor (1226 ta), Chilonzor (1211 ta), Yunusobod (1106 ta), Shayxontohur (929), Mirzo Ulug'bek (909 ta) va Mirobod (723 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (689 ta), Yakkasaroy (616 ta), Sig'ali (562 ta) hamda Bektemir (361 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2017-2019-yillarning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni



Korxonalar sonining o'sishi, birlikda

TIJORAT KORXONALARI

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 68,5 mingtani tashkil qildi

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonalar




Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5332 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1383 taga yoki 25,9 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

(1-iyun holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.


5332

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati %




Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2400 tasi qo'shma, 2939 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod tumanida 880 ta (jamidagi ulushi 16,5 %), Yakkasaroy tumani 837 ta (15,7 %), Yunusobod tumanida 712 tani (13,3 %), Mirzo Ulug'bek tumanida 662 ta (12,4 %), Chilonzor tumanida 626 ta (11,8 %), Yashnobod tumanida 437 ta (8,2 %) va Shayxontohur tumanida 376 ta (7,0 %) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor tumanida 300 ta (5,6%), Sirg'ali tumanida 209 ta (4,0 %), Uchtepa 166 ta (3,1 %) hamda Bektemir tumanlarida 127 ta (2,4 %) tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklariga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



2019-yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 788 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 298 taga ko'paygan.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 109 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 115 ta, Turkiya Respublikasi – 133 ta, Qozog'iston Respublikasi – 104 ta va Koreya Respublikasi – 55 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 293 ta, sanoatda 144 ta, qurilishda 119 ta va 232 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda



2019-yil 1-iyun holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 67,7 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 18,5 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-may oylarida 9,4 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 45,6 mingtaga ko'proqdir.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi 1 iyun holatiga

• Eng katta ulushi

• Eng kichik ulushi



•Yunusobod tumani
13,3 %



•Yakkasaroy tumani
9,2 %



•Chilonzor tumani
12,8 %



•Mirobod tumani
8,1 %



•Olmazor tumani
11,1 %



•Yashnobod tumani
7,3 %



•Mirzo Ulug'bek tumani
11,0 %



•Sirg'ali tumani
6,0 %



•Shayxontohur tumani
9,4 %




•Bektemir tumani
2,4 %



•Uchtepa tumani
9,4 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 67,7 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 18,3 mingta (27,0 %) – savdo, 14,2 mingta (21,0 %) - sanoat, 5,7 mingta (8,4 %) - qurilish, 0,7 mingta (1,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,4 mingta (8,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,1 mingta (4,6 %) - tashish va saqlash, 2,9 mingta (4,2 %) - axborot va aloqa sohasi, 1,2 mingta (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, 16,2 mingtasi (24,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

1,0




Sanoat

16,0



Qurilish

8,4



Savdo

47,9



Tashish va saqlash

3,1



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,7



Axborot va aloqa

3,2



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2




Boshqa turlari

13,5



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 4545 ta, sanoat 1511 ta, qurilish 802 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 546 ta tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda 296 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 118 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 90 ta tashkil etilgan.


Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Uchtepa (1458 ta), Olmazor (1196 ta), Chilonzor (1176 ta) va Yunusobod (1064 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yakkasaroy (587 ta), Sirg'ali (548 ta) hamda Bektemir (358 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1 iyun holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-iyun holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,2 % yoki 1088 tasi sanoat, 17,3 % yoki 445 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,9 % yoki 486 tasi savdo, 2,6% yoki 69 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,4 % yoki 35 tasi qurilish, 1,0 % yoki 25 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 22tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % yoki 40 tasi axborot va aloqa hamda 14,2 % yoki 365 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Toshkent shahar
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi boshlig'i
Rashidov Aziz
Tel.:71-230-88-31**